O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
YANGIQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

QARORI

Yangiqo’rg’on shaharchasi Mustaqillik ko’chasi, 1 uy. 161200 Tel: (69)63-21-051

2022 - yil 30 - sentabr 545-6-90-Q/22 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

Ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2023 yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 oktyabrdagi “Axoli bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-43 moddalari, O‘zbekiston O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida” gi Nizom shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019yil 10 maydagi 19-2019-B-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 31 mayda 3163-raqami bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida” gi Nizomga asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida tumanda 2023 yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, 2022 yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam soni 2-ilovaga muvofiq xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni 202,0 nafarni tashkil etadigan 7 foiz miqdorida, shu jumladan:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari uchun 0,5 foiz (53 kishi);

umumiy o‘rta maxsus, kasb-xunar ta’limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari uchun 4,7 foiz (70,0 kishi);

safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari uchun 0,5 foiz (1 kishi);

nogironlar uchun 3,0 foiz (34 nafar yuqorida ko‘rsatilgan ish o‘rinlariga tumanda nogironlarni ishga joylashish bo‘yicha talab 2 ta bo‘lganligi sababli kelgusida 32 ta ish o‘rinni bitiruvchilar uchun band etib qo‘yilsin);

tuman Bandlikka ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun 0,5 foiz (1 kishi);

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar uchun 0,5 foiz (2 kishi);

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,5 foiz (1 kishi) miqdorida ish o‘rinlari zahirasini belgilaydi.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

ta’lim muassasalarini tugatgan yoshlar uchun – ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

tuman Bandlikka ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun – maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni o‘tash muassasalaridan bo‘shatilgan, jazoni o‘tayotgan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko‘rilgan shaxslar, odam savdosidan jabrlanganlar uchun – ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa – maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari.

4. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar:

muhandislar, iqtisodchilar, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o‘qituvchi, tarozibon, elektr va avtoaravacha haydovchisi, tashuvchi, farrosh, o‘tyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog‘bon, qorovul.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil
5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasin;

yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Bandlikka ko‘maklashish markazini xabardor qilsin;

muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlasin, bu haqda tuman Bandlikka ko‘maklashish markaziga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

tashkilot har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Bandlikka ko‘maklashish markaziga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning
5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etsin;

tashkilot tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

7. Tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi (A.Koromatov) bir hafta muddatda ushbu qarorni 1-bandida ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Mazkur qaror “Yangiqo‘rg‘on xayoti” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab 3 oydan keyin kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Kupaysinov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Najmiddinov**

Yangiqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
545-6-90-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha komissiya tarkibi

Komissiya raisi			
1.	B.Kupaysinov	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari
Komissiya raisining o‘rinbosari			
2.	A.Koromatov	-	Tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi direktori
Komissiya a’zolari			
3.	A.Qayumov	-	Tuman xalk talimi muassasalari faoliyatini metodik ta’minlash va tashkil etish bo‘limi mudiri
4.	S.Siddiqov	-	Tuman hokimligi xuzuridagi Jazoni ijro etish joylaridan bo‘shatilgan shaxslarda ijtimoiy ko‘nikmalar hosil qilish markazi rahbari o‘rinbosari
5.	I.Bo‘ranov	-	Tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya mas’ul kotibi
6.	A.To‘raboev	-	Bandlikka ko‘maklashish markazi mutaxassisi, komissiya kotibi.

Izoh: komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.

Yangiqo‘rg‘on tuman hokimining
2022 yil 30 sentabrdagi
545-6-90-Q/22-son qaroriga
2-ilova

2023 йилда Янгикургон тумани бўйича ижтимоий муҳофазага муҳтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун банд қилиб қўйилган иш ўринлари тўғрисида

№	Ташкилотлар	Жами ишлавчилар сони	Келгуси йилга захирага қўйиш таклиф этилаётган иш ўринлари сони	шу жумладан:							
				Ногиронлар учун (3 фоиз)	Умумий ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган битирувчилари учун банд қилинган иш ўринлари сони	14 ёшгача ва ногирон болалари бўлган ёлгиз ва кўп болали ота-оналар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Бандликка кўмаклашиш марказида иш қидирувчи сифатида хисобда турган пенсия ёшига яқинлашиб қолган шахслар учун	Сафарбарлик чақириқ захирасида хизматни ўтаган ва Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафларидан муддатли харбий хизматдан бўшатилган шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Жазони ижро этиш муассасаларидан ёки суднинг қарорига кўра тиббий тусдаги мажбурлов чоралари қўлланилган шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Одам савдоси қурбонлари учун	Атрофдагилар учун хавф туғдирадиган иштимоий ахамиятли касалликлардан азоб чекивчи шахслар учун
				сони	сони	сони	сони	сони	сони	сони	сони
1	Туман Ободонлаштириш бошқармаси	**264**	**18**	2	8	7			1		
2	Янгиқўрғон туман йўллардан фойдаланиш унитар корхонаси	**103**	**7**		4	3					
3	Янгиқўрғон туман тиббиёт бирлашмаси	**1124**	**79**	3	45	29		1	1		
4	27-умумий урта таълм мактаби	**42**	**3**		1	2					
5	30-умумий урта таълм мактаби	**75**	5		2	3					
6	51-умумий урта таълм мактаби	**34**	**2**		1	1					
7	53-умумий урта таълм мактаби	**45**	**3**		1	1	1				
8	50-умумий урта таълм мактаби	**44**	**3**		1	1				1	
9	49-умумий урта таълм мактаби	**62**	**4**		2	2					
10	8-МТТ	**73**	**5**		3	2					
11	9-МТТ	**33**	**2**		1	1					
12	10-МТТ	**30**	**2**		1	1					
	Жами	**1929**	**133**	**5**	**70**	**53**	**1**	**1**	**2**	**1**	**0**